



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

**JAHON NASRI AN'ANALARI VA O'ZBEK ROMANCHILIGIDA AYOL OBRAZI TALQINI:
A.QODIRIY VA J.ZAYDON ASARLARI MISOLIDA**

Teshayeva Fotima Sherbek qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" va Jo'rji Zaydonning "Xorun ar-Rashidning singlisi" romanlaridagi ayol obrazlari qiyosiy-adabiy metod asosida tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor ikki asardagi ayol qahramonlar (Ra'no, Abbosa, shuningdek ikkinchi darajali ayol obrazlar) tipologiyasi, ularning hukmdor irodasiga qarshi isyoni, sevgi yo'lidagi jasorati va fojiali taqdiri kabi masalalarga qaratilgan. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tipologik va gender tahlil metodlari qo'llanilgan. Maqolada shuningdek, Simone de Bovuar va Judith Butlerning gender nazariyalari asosida ayol obrazlarining an'anaviy rollarni qay darajada buzishi (subversion) tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ikkala adib ham o'z asarlarida Sharq va G'arb adabiy an'analarni uyg'unlashtirgan holda, milliy mentalitetga mos original ayol obrazlari yaratgan. Qodiriy Zaydondan ayol obrazlarini she'riy qobiliyatlar bilan boyitish, ularni hukmdor irodasiga qarshi qo'yish kabi usullarni o'zlashtirgan, biroq ularni o'zbek milliy muhiti va ijtimoiy tanqid ruhida qayta talqin qilgan.

Kalit so'zlar :roman, ayol obrazi, qiyosiy adabiyotshunoslik, gender tahlili, Abdulla Qodiriy, Jo'rji Zaydon, Ra'no, Abbosa.

**ТРАДИЦИИ МИРОВОЙ ПРОЗЫ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА В
УЗБЕКСКОМ РОМАНЕ: НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АБДУЛЛА КАДЫРИ И
ДЖУРДЖИ ЗАЙДАН**

Тешаева Фотима Шербек кизи

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, магистрант

Аннотация

В данной статье на основе сравнительно-литературного метода анализируются женские образы в романах Абдуллы Кадыри «Мехроbdан чаён» («Скорпион с алтаря») и Джурджи Зейдана «Сестра Харун ар-Рашида». Основное внимание уделяется типологии женских персонажей (Ра'но, Аббаса, а также второстепенных образов), их бунту против воли правителя, мужеству на пути любви и трагической судьбе. В исследовании использованы историко-сравнительный, типологический и гендерный методы. На основе гендерных теорий Симоны де Бовуар и Джудит Батлер анализируется степень разрушения (субверсия) традиционных ролей женскими образами. Результаты показывают, что оба писателя, синтезируя восточные и западные литературные традиции, создали оригинальные женские образы, соответствующие национальному менталитету. Кадыри заимствовал у Зейдана такие приёмы, как наделение женских образов поэтическими способностями, противопоставление их воле правителя, но переосмыслил их в узбекском национальном контексте и в духе социальной критики.

Ключевые слова: роман, женский образ, сравнительное литературоведение, гендерный анализ, Абдулла Кадыри, Джурджи Зейдан, Ра'но, Аббаса.

**WORLD PROSE TRADITIONS AND THE INTERPRETATION OF THE FEMALE IMAGE IN
UZBEK NOVELS: BASED ON THE WORKS OF ABDULLA QODIRIY AND JURJI ZAYDAN**

Teshayeva Fotima Sherbek qizi

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Master's student

Abstract

This article presents a comparative literary analysis of female images in Abdullah Qodiriy's novel "Mehrobdan chayon" (The Scorpion from the Altar) and Jurji Zaydan's novel "The Sister of Harun al-Rashid". The main focus is on the typology of female characters (Ra'no, Abbasa, as well as secondary female figures), their rebellion against the ruler's will, their courage in the pursuit of love, and their tragic fate. The study employs historical-comparative, typological, and gender analysis methods. Drawing on the gender theories of Simone de Beauvoir and Judith Butler, the article examines the extent to which these female characters subvert traditional gender roles. The results show that both writers, synthesizing Eastern

and Western literary traditions, created original female images that reflect their national mentalities. Qodiriy adopted from Zaydan such techniques as endowing female characters with poetic abilities and setting them against the ruler's will, but reinterpreted them within the Uzbek national context and in a spirit of social criticism.

Keywords: novel, female image, comparative literature, gender analysis, Abdullah Qodiriy, Jurji Zaydan, Ra'no, Abbasa.

Jahon badiiy tafakkuri rivojida roman janri yetakchi estetik shakllardan biri sifatida insonning ichki dunyosi, ijtimoiy munosabatlari va taqdiri kabi murakkab masalalarni keng epik ko'lamda aks ettirish imkoniyatiga ega. XX asr o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy nafaqat realistik roman asoschisi, balki Sharq va G'arb adabiy an'analarini uyg'unlashtirgan ijodkor sifatida alohida o'rin tutadi. Uning "Mehrobdan chayon" romani Qo'qon xonligining so'nggi yillaridagi hayotni, ayniqsa, ayollarning og'ir taqdirini badiiy tasvirlaydi. Shu bilan birga, arab adabiyotida tarixiy roman janrining rivojiga katta hissa qo'shgan Jo'rji Zaydonning "Xorun ar-Rashidning singlisi" romani ham ayol qahramon Abbosa orqali sevgi, sadoqat va fojia kabi umumbashariy mavzularni yoritadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ikki sharq adibining asarlaridagi ayol obrazlarini qiyosiy o'rganish orqali o'zbek romanchilik maktabida jahon nasri an'analarining ijodiy o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash mumkin. Globallashuv davrida madaniy va adabiy aloqalarning faollashuvi turli xalqlarning estetik tajribalari o'zaro ta'sirini kuchaytirmoqda, bu esa milliy adabiyotlarning jahon adabiyoti bilan bog'liqligini ilmiy asosda tahlil etishni taqozo etadi. Tadqiqotning maqsadi — "Mehrobdan chayon" va "Xorun ar-Rashidning singlisi" romanlaridagi ayol obrazlari tipologiyasini qiyosiy-adabiy yondashuv asosida ochib berish, shuningdek, Zaydon romanchilik tajribasining Qodiriy ijodiga ta'sirini aniqlash. Tadqiqot vazifalari: ikkala romandagi ayol qahramonlarning o'xshash va farqli jihatlarini belgilash; ularni gender nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilish; adabiy ta'sir va ijodiy o'zlashtirish mexanizmlarini ochib berish.

MATERIALLAR VA METODLAR. Tadqiqotning asosiy materiali sifatida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" (1928) [1] va Jo'rji Zaydonning "Xorun ar-Rashidning singlisi" (1898) [2] romani tanlab olingan. Shuningdek, gender nazariyasiga oid Simone de Bovuar [3] va Judith Butler [4] asarlari, qiyosiy adabiyotshunoslikka doir tadqiqotlardan [5; 6] foydalanilgan.

Maqolada quyidagi usullar qo'llanilgan: (1) tarixiy-qiyosiy (kontakt-genetik) yondashuv — Qodiriy va Zaydon o'rtasidagi adabiy aloqalar, ta'sir va ijodiy o'zlashtirish mexanizmlarini tahlil qilish uchun; (2) qiyosiy-tipologik yondashuv — ikki romandagi ayol obrazlarining o'xshash va farqli jihatlarini solishtirish uchun; (3) gender tahlil — Beauvoir va Butler nazariyalari asosida ayol qahramonlarning jamiyatdagi mavqeyi, ularga yuklangan rollar va ushbu rollarni buzish (subversion) mexanizmlarini o'rganish uchun.

NATIJALAR. "Mehrobdan chayon" romanida ayol obrazlari tipologiyasi. Qodiriy romanda o'z davri ayollarining keng tipologiyasini yaratgan. Tahlil natijasida quyidagi obrazlar guruhlarini aniqlandi. An'anaviy, sabrli va fidoyi ayollar tipi: Nigor oyim — Solih mahdumning xotini, Ra'noning onasi. U erining ziqnaligi va qattiqqo'lligiga chidaydi, hech qachon unga qarshi chiqmaydi, taqdiriga rozi ayol sifatida "g'iybatni yomon ko'radigan", "oddiy va sodda" qilib tasvirlangan [1, 21]. Nodira — Anvarning katta opasi. Ota-onasidan erta ayrilgach, ukalarining tarbiyasi uchun o'z shaxsiy hayotidan, orzu-umidlaridan voz kechadi. Anorbibi — Anvarning onasi. Eri vafotidan keyin to'rt bolasi bilan yolg'iz qoladi, olti oy ichida eridan va ikki bolasidan ayriladi, qashshoqlik va kasallikka qaramay farzandlarini tashlab ketmaydi [1, 47]. Haram ayollari tipologiyasi: Gulshanbonu — ayyor, epchil, ammo o'z irodasi zaif, "xonning otgan o'qi" ekanligini aytuvchi ayol [1, 130]; Roziya oyim — xonning eng go'zal va sevimli xotinlaridan biri, faqat tashqi go'zallik va hashamat ichida yashaydi; Og'acha oyim — xonning ishonchli xotini, haramning boshqaruvchisi, "mushohadali" — chuqur o'ylaydigan, uzoqni ko'radigan ayol [1, 130].

Iste'dodli, ammo taqdiri fojiali ayollar tipi: Nazmiy — "Qirq qizlar" guruhidagi iste'dodli shoira. U qishloqdan keltirilgan, oddiy dehqon oilasining qizi. Otasi uch yillik soliqni to'lay olmagan uchun qizini xonga tortiq qilishga majbur bo'ladi. Nazmiy sil kasalligidan vafot etadi. Uning she'rlari: "Oyu yillar yig'lagan, bag'rin har dam tig'lagan, / Hasratidan big'lagan baxtsiz bir qiz Nazmiydir!" [1, 141]. Nozik — "Qirq qizlar"dan biri. Bir kuni hammomdan qaytayotganda yo'lda Anvarni ko'rib qoladi va unga oshiq bo'ladi, uni "pari yigit" deb o'ylaydi [1, 142]. Yangi tip: bilimli, jasur va mustaqil ayol — Ra'no: Ra'no obrazida Qodiriy an'anaviy ayol timsolidan tubdan farq qiladi. Uning bilim doirasi o'sha davr ko'plab erkak ziyolilarinikidan keng: "Haftiyak", "Qur'on", "Chahor kitob", Navoiyning barcha asarlari, Fuzuliy devoni, "Layli va Majnun", Hofiz Sheroziy, Mirzo Bedil, arab tili nahv va sarfi, Shayx Sa'diyning

“Gulistoni” [1, 23]. Ra’no nafaqat o’qiydi, balki o’zi she’r yozadi. Xon unga qiziqish bildirgach, u Anvarni qochishga undaydi va o’zi ham erkak kiyimida — bo’z yaktak va telpak kiyib — bu qochishda faol ishtirok etadi: “Ra’noni yigit libosida ko’rish ayni muddao edi, zero kechasi paranjili xotinni boshlamoq nazoratchilarda har xil gumon uyg’otganidek, Anvarning o’zi uchun ham noqulay edi” [1, 51-bob].

“Xorun ar-Rashidning singlisi” romanida ayol qahramon Abbosa talqini: Zaydon romanida Abbosa — Xorun ar-Rashidning singlisi — markaziy ayol qahramon hisoblanadi. U mard, sevgisiga sodiq va ona mehriга to’la ayol sifatida tasvirlangan. Abbosa xalifaning qat’iy taqiqiga qaramay, vazir Ja’far Barmakiy bilan yashirin nikoh tuzadi va undan farzand ko’radi. U akasining shafqatsizligini quyidagicha ifodalaydi: “Zolim akamning shafqatsizligini o’zing juda yaxshi bilasan. Uning muzlagan qalbida na shafqatga, na mehr-oqibatga o’rin bor” [2, №4, 167]. Abbosaning isyoni xalifaning sha’ni va sulola nomusiga to’g’ridan-to’g’ri tajovuz bo’lgani uchun juda xavflidir. U o’lim oldidan: “Men sizga hech qanday qul yoki cho’ri emasman!” — deb xalifaga qarshi chiqadi va o’z qadr-qimmatini saqlaydi [2, №4, 167]. Abbosaning qatl etilishi ochiq va shafqatsiz: “Abbosaning boshi bir zarbda yerga tushib, dumalab ketdi” [2, №4, 167].

Xususiyat: Ra’no (Qodiriy) — Abbosa (Zaydon)

Ijtimoiy mavqeyi: Oddiy qiz, bilimli ziyoli oilasidan — Xalifaning singlisi, saroy imtiyozlariga ega

Isyon shakli: Faol qochish, erkak kiyimida yashirinish — Yashirin nikoh, sir saqlash

Jasorat turi: Jismoniy qochish, o’z shaxsini o’zgartirish — Ruhiy jasorat, o’lim oldidan ham qadr-qimmatni saqlash

Qarshilik usuli: Anvarni ham harakatga undaydi, passiv emas — O’zini qul yoki cho’ri deb hisoblamaydi

Yakun: Anvar qatl etiladi, Ra’noning taqdiri noma’lum — Ochiq va tantanavor qatl etiladi

Adabiy ta’sir va ijodiy o’zlashtirish: Qiyosiy tahlil shuni ko’rsatadiki, Qodiriy Zaydondan bir qancha badiiy usullarni o’zlashtirgan: (1) kanizak obrazlarini she’riy qobiliyatlar bilan boyitish — Zaydon romanidagi Karnafel ismli joriya she’r va musiqani mukammal bilgan [2, №3, 47], Qodiriy esa Nazmiy obrazini yaratgan; (2) hukmdor irodasiga qarshi chiqqan ayol qahramon — Abbosa va Ra’no; (3) qurilish manzaralarini batafsil tasvirlash — har ikki asarda ham uchraydi. Biroq Qodiriy bu usullarni o’zbek milliy muhiti va Qo’qon xonligining real sharoitiga moslab, tanqidiy ruhda qayta talqin qilgan.

MUHOKAMA. Gender nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil: Simone de Beauvoirning “ayol bo’lib tug’ilmaydi, ayol bo’lib yetishiladi” degan tezisiga ko’ra [3, 301], “Mehrobdan chayon” romanidagi Nigor oyim, Nodira va Anorbibi aynan “ayol bo’lib yetishilgan” qahramonlardir. Ular o’zlariga yuklangan itoatkor xotin, mehribon ona, fidoyi opa rollarini mukammal o’zlashtirgan va hech qachon bu rollarga qarshi chiqmagan. Judith Butlarning “gender performativligi” nazariyasiga ko’ra, gender — bu har kuni takrorlanadigan harakatlar majmuasidir [4, 33]. Ra’no obrazi bu nazariyaning yorqin badiiy isbotidir. U an’anaviy jamiyatda ayoldan kutilgan barcha xatti-harakatlarni — jim turish, bo’ysunish, faqat uy ishlari bilan shug’ullanish — bajarmaydi. U she’r yozadi, falsafiy kitoblar o’qiydi, Anvar bilan teng huquqli she’riy musobaqalarda qatnashadi. Eng muhimi, u xonga tegishni rad etadi va erkak kiyimida Anvar bilan qochadi. Butler aytganidek, Ra’no gender normasini buzadi (subversion). Uning erkak libosida chiqishi — bu ayollik belgilarini butunlay rad etish, o’zining yangi — jasur, faol, o’z taqdirini o’zi belgilaydigan — ayol modelini yaratishdir. Abbosa obrazi esa boshqa turdagi subversionni namoyish etadi. U xalifaning singlisi sifatida saroy ayolidan kutilgan itoatkorlik va sokinlikni rad etadi. U o’z sevgisi yo’lida nafaqat o’z hayotini, balki sulola sha’nini ham xavf ostiga qo’yadi. Abbosaning “Men sizga hech qanday qul yoki cho’ri emasman!” degan nidosi uning o’z qadr-qimmatini anglashi va teng huquqlilikni talab qilishining ifodasidir.

“Ming bir kecha” an’analarning ayol obrazlarida aks etishi: Zaydon romani “Ming bir kecha” uslubiga xos epik tasvirlar, mubolag’alar va ramziy tafsilotlar bilan boyitilgan. Abbosa obrazi ham shu uslubda — hashamatli saroy, fojiali sevgi va qasoskor hukmdor o’rtasidagi ziddiyat sifatida talqin qilingan. Qodiriy esa bu uslubni bilvosita — Zaydon orqali o’zlashtirgan va uni o’zbek milliy muhitiga moslab, realistik psixologizm bilan uyg’unlashtirgan. Ra’noning ichki kechinmalari, uning qaror qabul qilish jarayoni, qochishdagi jasorati — bularning barchasi realistik psixologizmning yorqin namunasidir.

Ayol obrazlari orqali ijtimoiy tanqid: Ikkala adib ham ayol qahramonlar taqdiri orqali zolim hokimiyat va adolatsiz tuzumni tanqid qiladi. Qodiriy Ra’no, Nazmiy, “Qirq qizlar” obrazlari orqali xon hokimiyatining ayollarni qanday obyektga aylantirishini, ularning iste’dodi va orzu-umidlarini qanday bo’g’ishini ko’rsatadi. Zaydon esa Abbosa qismati orqali mutlaq hokimiyatning oilaviy munosabatlar va

shaxsiy baxtni qanday yo‘q qilishini fosh etadi. Farqi shundaki, Qodiriy tanqidi asosan ijtimoiy tabaqaviy adolatsizlikka qaratilgan bo‘lsa, Zaydon ko‘proq siyosiy va sulolaviy masalalarga e‘tibor qaratadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu tadqiqotda Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani hamda Jurji Zaydon ijodidagi ayol obrazlari qiyosiy-tipologik va gender-nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Mehrobdan chayon” romanida Qodiriy o‘z davri ayollarining keng badiiy tipologiyasini yaratgan bo‘lib, unda an’anaviy sabrli, itoatkor va oilaviy muhit bilan chambarchas bog‘langan Nigor oyim, Nodira, Anorbibi kabi obrazlardan tortib, iste’dodli shoir Nazmiy hamda o‘z taqdirini mustaqil belgilashga intilgan jasur Ra’no obrazigacha bo‘lgan turli ayol xarakterlari gavdalanadi. Ayniqsa, Ra’no obrazi an’anaviy ayol timsolidan tubdan farq qilishi bilan ajralib turadi: u bilimli, jasoratli, o‘z fikriga ega va hayotiy tanlovida faol pozitsiya egallagan qahramon sifatida o‘zbek adabiyotida ayol obrazining yangi bosqichga ko‘tarilganini namoyon etadi. Zaydon romanidagi Abbosa obrazi esa xalifaning singlisi, sevgisi yo‘lida o‘z hayoti va sulola sha’nini xavf ostiga qo‘ygan, hatto o‘lim oldida ham o‘z qadr-qimmatini saqlay olgan ayol sifatida talqin qilinadi. Uning isyoni saroy ayolidan kutilgan itoatkorlik va sukutkorlikni rad etishning yorqin namunasi bo‘lib, ayol shaxsiyatining irodaviy va ma’naviy mustaqilligini ifodalaydi. Ra’no va Abbosa obrazlarini qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, ular turli tarixiy-madaniy muhitlarda yaratilgan bo‘lsa-da, ikkalasi ham hukmdor irodasiga qarshi chiqqan, taqiqlangan sevgi yo‘lida isyon ko‘targan ayollar sifatida umumiy tipologik yaqinlikka ega. Ra’no faol harakat, qochish va o‘z taqdirini o‘zi belgilash orqali norozilik bildirsa, Abbosa o‘lim oldida ham o‘z sha’ni va qadr-qimmatini saqlab qolish orqali isyonkor ruhini namoyon etadi. Shu jihatdan har ikkala obraz zolim hokimiyat, ayol erkinligini cheklovchi ijtimoiy tartib va ayol qadr-qimmatini pastlovchi tuzumga qarshi badiiy norozilik ifodasi sifatida talqin qilinadi. Simone de Beauvoir va Judith Butler nazariyalari asosida yondashilganda, Nigor oyim, Nodira va Anorbibi “ikkinchi jins” maqomini aks ettiruvchi an’anaviy ayol timsollari sifatida ko‘rinsa, Ra’no gender normasini buzuvchi, ya’ni subversiv qahramon sifatida an’anaviy ayollik rolini rad etadi. Abbosa ham saroy ayolidan kutilgan itoatkorlik modelini buzib, o‘z sevgisi, sha’ni va shaxsiy tanlovi yo‘lida hukmdor irodaga qarshi turadi. Tadqiqot natijalari Qodiriy Zaydon ijodidan ayol obrazlarini she’riy qobiliyat, ichki erkinlik va hukmdor irodasiga qarshi qo‘yish kabi badiiy usullar orqali boyitish tajribasini o‘zlashtirganini ko‘rsatadi. Biroq Qodiriy bu tajribani bevosita takrorlamaydi, balki uni o‘zbek milliy muhiti, Qo‘qon xonligining real ijtimoiy sharoiti va milliy ruhiyat talablari bilan uyg‘unlashtirib, realistik hamda psixologik jihatdan chuqur ayol obrazlarini yaratadi. Natijada Ra’no obrazi nafaqat Zaydon an’analarning ijodiy davomchisi, balki o‘zbek romanchiligida ayol shaxsiyati, erki va qadr-qimmatini badiiy talqin etishdagi muhim estetik yangilik sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, “Mehrobdan chayon” va “Xorun ar-Rashidning singlisi” romanlari Sharq adabiyotida ayol obrazlarini talqin qilishning ikki — o‘zbek va arab — modelini ifodalaydi. Qodiriy jahon nasri an’analari ijodiy qayta ishlash orqali o‘zbek romanchilik maktabida ayol qahramonlarning yangi — faol, mustaqil va o‘z taqdirini o‘zi belgilaydigan — tipini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qodiriy A. Mehrobdan chayon: roman. – Toshkent: Sharq, 2013. – 288 b.
2. Zaydon J. Horun ar-Rashidning singlisi: tarixiy roman // Jahon adabiyoti. – 1997. – № 2. – B. 9–48; № 3. – B. 72–104; № 4. – B. 127–179.
3. Beauvoir S. de. The Second Sex / trans. H. M. Parshley. – London: Vintage, 1997. – 800 p.
4. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York: Routledge, 1990. – 172 p.
5. Qosimov A. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 160 b.
6. Normatov U. Qodiriy mo‘jizasi: talqin, qayd, suhbat va mulohazalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 272 b.